



## TIL O`RGANISHDA MATN VA MAQOLLARNING O`RNI

**Jumanova Go`zal Alisherovna**

University of Tashkent for Applied Sciences

“Department of Languages” English teacher

(90) 3303089

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til o'rgatish metodikasida matnlar va maqollarning o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqolada do'stlik konseptining ingliz va o'zbek maqollari ifodalanishining o'ziga xos jihatlarini tavsif qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, maqol, konsept, obraz, analistik til, sinonimik qator, aglitunativ til, allegorik vosita.

Insonlar o'zlarining hayotida bo'lgan voqealarni o'z avlodlariga turli yo'llar bilan yetkazib berishga harakat qilishgan. Shunday narsalarni yerkazib berishda xalq og'zaki ijodi, maqollar, matallar, hikmatli so'zlar va shu kabilalar ning roli beqiyos sanaladi. Mana shu manbalardan biri bo'lgan maqollar ham biz uchun to'g'ri qaror qabul qlishda, har xil vaziyatlardan chiqishda yordamchi vazifasini o'taydi.

Xalq ijodiyotining ko'pchilik janrlaridan, jumladan, maqollarda xalq jamiyatidagi munosabatlar, hodisa va holatlarni soddarroq, oydinroq ifodalamoq maqsadida tabiatdagi o'z xususiyati bilan shunga mos keladigan turli narsalar (xayvonlar, o'simliklar, ularning mevalalari, jismlar, uy jihozlari kiyim-kechaklar, ish qurollari, mehnat mahsulotlari) obrazidan ustalik bilan foydalanadi. Ana shu narsalarning har

# THE PROGRESS OF SCIENCE JOURNAL



birini timsol qilib olib ular vositasida muayyan sifatlarga (xoh ijobiy, xoh salbiy) ega bo‘lgan kishilarng obrazini gavdalantiradi. Aslida maqol so‘zi arab tilidan olingan bolib hikmatli so‘z, otlar so‘zi kabi tarjima qilinib yuritiladi. Maqollarda barcha fikr bir umumiy ma’noga qaratiladi va har bir maqolda yashirin ma’no bo‘ladi. Ko‘pincha maqollar o‘z ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Chunki shu orqali insonlarni tanqid qilish ,ularni hayvonlar qushlar, o‘simliklar orqaki yaxshilikka da’vat etish yashiringan bo‘ladi. Bu esa fan tilida allegorik vositalar deb yuritiladi. Lekin allegoric vositalarning yana bir jihat shuki, ular qaysidir ma’noda insonlarni boshqa bir vosiitaalar orqali aks ettiradi. Maqollar qisqa shaklda keng mazmunni ochib beradilar. Bunday qisqalikka gapning ayrim bo‘laklarini ishlatmaslik natijasida erishiladi.

Masalan:

“Oldin uyla - keyin suyla”. (First think - then speak)”.

“Hechdan ko‘ra- kech yaxshi”.“Better late than never”.

“He laughs best, who laughs last”.

“Birovning holiga kulmagin zinho, sening holingga ham kuluvchilar bor”.

“A great ship asks deep waters”.

“Katta karvonga- kattanyo‘l”.

Maqol va matallarning muhim tomoni ularni oddiy fikr - mulohazalardan ajrab turuvchi narsa, ularning semantikasidir, ya’ni bunda ikki ma’noning to‘qnashuvi, chatishuvini kuzatish mumkin, asl ma’no hamda ko‘chma ma’no.

Masalan:

“Puch yong‘oq bilan qo‘yningni to‘ldirma”,

“Ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq”.

Maqollarning tuzilishida alliteratsiyaning ahamiyati kattadir.

# THE PROGRESS OF SCIENCE JOURNAL



“Tomdan tarasha tushganday». Maqol va matallarda stilistik usullardan takror va parallelizmning ham ta’sir kuchi katta.

Masalan, o‘zbek tilida

“Yaxshi so‘z - jon ozig‘i, yomon so‘z - bosh qozig‘i”.

“Qor yog‘di - don yog‘di” kabi maqollar shular jumlasidandir.

Bu ingliz tilida shunday aks ettiriladi.

“A good beginning makes a good ending!”.

“Eat at pleasure, drink with measure”.

“No gains, no pains”

“Dunyoda tilsiz xalq bo‘lmaganidek, maqolsiz til ham yo‘q”, - deb ko‘rsatadi tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat.

Xalq ijodiyotining o‘ziga xos janri og‘zaki nutqda ham, yozma adabiyotda ham turli atamalar bilan nomlanadi: maqol, matal, naql, masal, hikmatli so‘zlar, aforizmlar, ota-bobolar so‘zi, donolar so‘zi va hoqazo. Bular orasida maqol atamasi keng qo‘llaniladi. Maqol - xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqeа - hodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqol - kundalik hayotda, kishilarning bir - birlari bilan muomalada bo‘lishi jarayonida tug‘iladi. Xalq maqoli - xalqning mulkidir.

Maqol qayg‘usi - xalq qayg‘usi, maqol g‘azabi - xalqning g‘azabi, maqol kulgusi- xalq kulgusi va maqol kinoyasi - xalq kinoyasi demakdir. Maqol ishlatmagan bironta xalq, maqol ijod kilmagan bironta til yo‘q.

Maqollar borki, shirin pand - nasihat qiladi, aql o‘rgatadi, mard va botir bo‘lishga da’vat etadi; achchik, aybingizni dangal yuzingizga aytadi, poraxo‘r, muttaham, yolg‘onchi, o‘g‘ri, lo‘ttiboz, ikkiyuzlama, xushomadgo‘y, lagarbardor,



qallob odamning jazosini beradi: achchiq alam qildiradigan so‘zlar bilan piching qiladi, araz va kinoya aralash boplab adabini beradi.

### Maqollarga xos belgilari:

1. Maqollar tugal fikrni bevosita ifodalaydi.
2. So‘zlar bir-biriga qofiyalanib keladi.
3. Qarama-qarshi ma’noli so‘zlar ishlatiladi.
4. Maqollar majoziy ma’noda ishlatiladi.
5. Maqollarning strukturasi ko‘pincha qo‘shma gap strukturasiga o‘xshaydi.
6. Maqollar kontekstda mustaqil gap yoki qo‘shma gapning bir qismi sifatida keladi.

Matallarning strukturasi bir tomonidan sodda gap strukturasiga teng bo‘lsa, ikkinchidan ularning strukturasi so‘z birikmasi strukturasiga o‘xshaydi, shuning uchun ham matallarni boshqa turdagи frazeologizmlardan ajratish qiyin.

Maqollar publitsistikada, ilmiy-ommabop matnlarda va ayniqsa, badiiy asarlarda keng qo‘llanadi. Ular personajlar nutqiy tavsifida, nutqning uslubiy ta’sirchanligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqol va matallarining “Uslubiy vazifalari xilma-xil va rang-barangdir, ularning ayrimlari “tabiiy”, maqollarning ichki tabiatidan kelib chiqadi. Qolganlari esa individual harakterga ega bo‘lib, u yoki bu so‘z san’atkorining estetik maqsadi, hohish irodasi, til vositalaridan foydalanishdagi mahorati bilan aloqadordir. Shulardan birinchisini maqol va matallarning lisoniy (uzual) uslubiy vazifalari deb, ikkinchisini esa nutqiy (okkazional) uslubiy vazifalari deb nomlash mumkin”

Xalq maqollari shu xalqning butun tarixini, hayot yo‘lini aks ettiradi, shuning uchun ham yozuvchilar maqollarga tez-tez murojaat etadilar. Xalq maqollari badiiy asar tilining shirali va ta’sirchan bo‘lishida muqobil uslubiy vositadir. Obrazli qilib



aytganda, uzukka ko‘zqanday bezak bo‘lsa, maqol ham notiqning nutqiga, yozuvchining tasviriga ana shunday kuch hayotiylik bag‘ishlaydi- ayrim asarlarda epirgraf qolib keltirilgan maqollar shu asar g‘oyasini, maqsadini yaqqol ifodalab turish uchun xizmat qiladi:

“To be or not to be”.

“Better ate than never”.

“All for one, one for all”.

“Otnin go‘limi- itning bayrami”.

“Osmon yiroq-er qattiq”

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek tillari ham juda maqollarga boy hisoblanadi. Har bir til alohida bo‘lgani bilan uning tarbiyaviy ahamiyati bir xil bo‘ladi. Qiyosiy tilshunoslik, tarix ba boshqa fanlarning tajribalarning ham ahamiyatli jihat shu kabi o‘xshashlik va farqli tomonlarni izlab topish hisoblanadi.

## Foydalangan adabiyotlar:

- 1 Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.– 274b.
- 2.Galsworthy, John. The White Monkey and A Silent Wooing. – New York: Charles Scibner’s sons, 1999. - 291p
3. Brontyo, Charlotte. Jane Eyre. – New York: Charles Scribner’s sons, 2004.-570p
4. Yuldashev B.O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. -Samarqand: SamDU, 2007. -108b.